5. Sharhlash tipidagi kiritmalar. Bu turdagi kiritma konstruksiyalar gapdagi biror umumiyroq ma'lumot beruvchi so'zni ma'nosini aniqlashtirish, qo'shimcha, ma'lumot berish uchun ishlatiladi. Bu tipdagi kiritma konstruksiyalar misol uchun, masalan, kabi so'zlar bilan yaqqol ko'rinib turadi.

Masalan: O'rdaning tashqarig'i qismining uch tarafi (Janub, Sharq, G'arb) binosiz, faqat qo'rg'on devorlarining zinalari edi (A.Qodiriy. O'tkan kunlar)

6. Subyektiv-emotsional munosabat ifodalovchi kiritmalar. Bu turdagi kiritmalar muallifning o'quvchiga bo'lgan murojaati, his-tuyg'usi o'zi hikoya qilayotgan voqeaga bo'lgan shaxsiy fikrini ifodalaydi. Masalan: Toshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuborurman (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada kiritma konstruksiyalar bo'yicha dastlabki taqdidotlar, izlanishlar va ularning semantik tuzilshiga ko'ra turlari misollar bilan yoritilb borilgan, kiritma konstruksiyalar ustida dastlabki o'rganishlar va ularning fanga kirib kelishi, gapdagi o'rni va stilistik-semantik turlari haqida maqolada yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). М.В.Ломоносов. Российская грамматика. Спб.,1804, с. 435–437.

(2). Н.И.Греч. Практическая русская грамматика. Спб, 1827, р. 359–437.

(3). Овсянико-Куликовский Д.Н. Синтаксис русского языка. Изд. 2-е, Спб., 1912.

(4). Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд 6-е, М., Учпедгиз, 1938.

(5). Пешковский А.М. Школьная и научная грамматика. Изд. 3-е, Берлин, Госиздат РСФСР, 1922.

(6). А.Б.Шапиро, С.И.Абакумова. Методика пунктуации. 1948, с. 63.

(7). G'ulomov A.G'., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II bob, sintaksis, G'.Abdurahmonov tahriri ostida, Toshkent, "O'qituvchi", 1965, 189–194-betlar.

(8). Аникин А.И. Вводные сочетания слов в современном русском языке (образованные на основе имен), "Ученые записки МГПИ", 1960.

(9). Щеболева И.И. Вставные конструкции в современном русском литературном языке. Автореф. дисс. канд.филол.наук, 1955, с. 15.

(10). Nazarov Q. Kiritma gap va kiritma so'z haqida. "O'qituvchi" gazetasi, 1964.

(11). Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. Toshkent, 1976.

(12). Abdulla Qodiriy. "O'tkan kunlar" asari.www.ziyouz.com, 2007.

Daminova Mashhura Zafar qizi (Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi; daminovamashhura8@gmail.com)

ILOVA KONSTRUKSIYADA SINTAKTIK BOG'LANISHNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ilova konsytuksiyalarning sintaktik bog'lanishning noan'anaviy turlari, ilovali elementlarning ketma-ket birikib kelishi, ilova hodisasi muammolari, ularning badiiy prozada bajarib keladigan stilistik funksiyalarini tadqiq qiladi. Quyida bayon qilingan «Ilovali konstruksiyalar» to'g'risidagi fikrlar ilmiy, nazariy ahamiyatga ega bo'lib, boshqa tilshunoslik fanlarining taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga egadir.*

Kalit so'zlar*: biriktiruvchi qo'shma gaplar, intonatsion xarakter, og'zaki nutq hodisasi, sintaktik munosabatlar, qo'shimcha komponent qurilishi, murakkab gap qismlari, qo'shma gap bo'laklari.*

ОСОБЕННОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОЙ СВЯЗИ В КОНСТРУКЦИИ ПРИЛОЖЕНИЯ

Аннотация*. В данной статье приложение изучает нетрадиционные типы синтаксической связи конструкций, последовательное спряжение элементов аппликации, проблемы феномена аппликации, их стилистические функции, которые они выполняют в художественной прозе. Мнения по «Прикладным конструкциям», как описано ниже, имеют научное, теоретическое значение и важны для прогресса других лингвистических дисциплин.*

Ключевые слова: *соединительные сложные предложения, интонационный характер, явление устной речи, синтаксические отношения, аддитивная компонентная конструкция, части сложного предложения, фрагменты сложного предложения.*

CHARACTERISTICS OF SYNTACTIC CONNECTION IN APPENDIX CONSTRUCTION

Annotation. *In this article, the application studies the non-traditional types of syntactic linkage of concytuxies, sequential conjugation of application constructions, the sequential joining of the application elements, problems of the application phenomenon, their stylistic functions that they perform in artistic prose. The opinions on «Applied constructions» as described below are of scientific, theoretical importance and important for the progress of other linguistic disciplines.*

Keywords: *connective compound sentences, tonic character, verbal speech phenomenon, syntactic relations, additive component construction, complex sentence parts, compound sentence fragments.*

Kirish. Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda ilova komponentli konstruksiyalarning lingvistik mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog'liq semantik-sintaktik xususiyatlar va ularning struktur ko'rinishlarini aniqlashga qaratilgan qator muammolar ilmiy izlanishlarining obyekti bo'lib kelmoqda. Ma'lumki, ilova hodisasi o'zining uzoq yillik tarixiga ega bo'lgan grammatik hodisa hisoblanadi. Tilshunoslikda ilovali elementlarning birmuncha o'rganilishiga qaramasdan, ularning sintaktik bog'lanish xususiyatlarining bugungi kumda muammoligicha qolmoqda. Shunday ekan, ko'pchilik tadqiqotchilarning turli tillar materiallari asosida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ilova konstruksiyaning barcha strukturaviy xususiyatlari atroflicha o'rganilgan deya olmaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (literature review). Rus tilshunos olimi G.Y.Solganikning «Синтаксическая стилистика» [Solganik. 1991] monografik asari ilova konstruksiyaning bog'lanish turlari haqida aytib o'tgan. Shuningdek, A.A.Andriyevskayaning bu mulohazalari yirik tilshunos olim Y.A.Referovskayaning «Лингвистические исследования структуры текста» nomli monografik asarida ham qayd qilinadi. Rus tilshunosi I.R.Galperinning fikr-mulohazalariga ko'ra, matn har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulini taqozo etishi ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ilova konstruksiyani sintaktik bog'lanishning alohida turi sifatida ajratib ko'rsatishga xizmat qiluvchi ma'lum mezonlarning mavjudligiga qaramasdan, ko'pincha, shu tarzda tuzilgan tuzilmalarni boshqa sintaktik munosabatlarga asoslangan o'xshash sintaktik konstruksiyalardan farqlash qiyin kechadi. Bu, birinchi navbatda, ilova aloqasining paydo bo'lish sabablari va mezonlari sifatida semantik-semantik va psixologik omillarning katta roli bilan bog'liq. Natijada ayrim tilshunoslar sintaktik aloqaning bu turi mavjudligini inkor etadilar. Ilovani farqlashda turli darajadagi mezonlar – psixologik-semantik, sintaktik va intonatsion [5;5-b.] belgilar ko'rib chiqiladi. Bog'lovchili qo'shma gaplar bo'lmasa, umuman, strukturaviy mezondan foydalanishning qonuniyligi haqida fikr bildiriladi. Ilova munosabatlarni tashkil etuvchi birliklar sifatida ajratilgan, ammo ilova qilish, shuning uchun tarkib va tobelik doirasiga kiritilgan [4;5-b.]. Boshqa tadqiqotchilar ilova orqali oldingi gap bilan bog'liq bo'lgan gapning psixologik mezonini belgilaydi. Shu bilan birga, argument shundan iboratki, agar shunday deb tan olinsa, ilova tarkib va tobelik bilan bir qatorda gapning tashqi tuzilishiga emas, balki uning yaralish jarayoniga tegishli bo'ladi [1;71–72-b.], qismlarni bir butun ichida birlashtirish mexanizmi [4;6-b.]ga bog'liq bo'ladi.

Biroq, bizning fikrimizcha, yuqorida aytib o'tilganidek, ilova hodisasining noan'anaviyligi, ikkilamchi xarakterini, birinchi navbatda, uning nutq sintaksisining turli sohasiga tegishliligini hisobga olish kerak, bu yerda grammatik jihatdan shakllanmagan sintaktik konstruksiyalar muhim rol o'ynaydi [7;22-b.].

Og'zaki nutq hodisasi, ilova qilish jarayonining alohida turini aks ettiradi, ayni paytda, matnda nutqni shakllantirish usuli bo'lib, unda psixologik-semantik va semantik omillarning roli yuqori bo'lib, uning natijasi qaysi rasmiy-strukturaviy va kontekstual mezonlar qo'llanilishini tahlil qilish hisoblanadi. Binobarin, ilova dinamik hodisa bo'lib, u faqat quyida ko'rsatiladigan matn nutqi kontekstida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Ilova aloqa qismlar orasidagi ilova munosabatlarga ega bo'lgan maxsus turdagi tuzilmalarni tashkil qiladi. Bu holda, «struktura» ostida, biz so'zlarning har qanday sintaktik ma'noli birikmasini tushunamiz [6;83-b.]. Tilshunoslikda ilova bog'lanishning turlicha tushunilishi munosabati bilan ilova orqali hosil bo'lgan turli konstruksiyalar ajratiladi.

Tilshunoslarning keng doirasiga ergashib, ilova sintaktik kompleks orqali hosil bo'lgan konstruksiyani tushunamiz.

L.P.Iofik «birikish»ni oldingi predikativ birlikka bir tomonlama yo'nalish sifatida belgilaydi, bu yerda valentlik xususiyatlari biriktirilgan predikativ birlik yordamida ochiladigan so'z yoki so'zlar guruhi mavjud emas [3;121–123-b.]. Xuddi shu nuqtayi nazarga 1983-yil «Ingliz tilining nazariy grammatikasi» mualliflari ham qo'shiladilar.

Ilova konstruksiya ikki yoki undan ortiq tarkibiy yoki ma'no jihatdan bog'langan gaplardan iborat bo'lib, ilovali bog'lanish vositasida tuzilgan va mantiqiy asosga ega bo'lib, «nutq oqimining tasviridan iborat bo'lib, nutqning bosqichma-bosqich shakllanishini aks ettiradi» [2;214-b.]. Tilshunoslikda ilova vositalari va ularning bo'laklari ishtirokida hosil bo'lgan konstruksiyalarni belgilash uchun bir qator atamalar qo'llaniladi: murakkab sintaktik butunlik, murakkab sintaktik birlik, ilova konstruksiya, ochiq struktura, yaqinda turgan tuzilma, yaqin turgan komponent, super frazali birlik, ajratilgan konstruksiyalar, bog'lovchi tuzilmalar, bo'laklar – «parchalar», tobe gaplar – «tobe kichik jumlalar», biriktirilgan jumlalar – «tag» jumlalar. Terminologiyadagi bunday nomutanosiblik bu sintaktik hodisani tahlil qilishni va uning tarkibiy

qismlarini farqlashni qiyinlashtiradi. Biz murakkab sintaktik konstruksiya haqida so‘z yuritayotganimizni ko‘rsatadigan «ilovali komponentli konstruksiya» atamasini qo‘llashni taklif qilamiz, uning qismlaridan biri ilova qilinadigan bo‘lak orqali kiritilgan. Ushbu sintaktik kompleksning birinchi, asosiy qismi, V.Vinogradovning fikricha, «ilovala qism» deb ta’riflanadi, asosiy xabarni o‘z ichiga olgan to‘liq, rasmiy ravishda tugallangan jumla shaklida ifodalanadi. Sintaktik kompleksning ilovali qismga bog‘liq bo‘lgan ikkinchi komponenti, biz ilovali komponent deb nomlaymiz, bu komponent keyin hosil bo‘ladi [2;208-b.].

Asosiy qism (gap) allaqachon ma’lum bo‘lgani uchun uning ma’nosini tushuntirish, aytilganlarni umumlashtirish, baholash, unga munosabat bildirish, aniqlashtirish ilovali komponent (ilovali element) orqali amalga oshiriladi.

Bu sohada bir qator tilshunoslarning struktura jihatdan turli xil komponentlar ham birlashishi, ham ilova qilinishi mumkin degan fikrni ilgari suradilar. Ularning tadqiqot natijalari quyidagi ilovali komponent sifatida harakat qilishini tasdiqlaydi:

– komponentning alohida a’zolari;
– turli strukturali sodda jumlalar;
– qo‘shma gap bo‘laklari;
– murakkab gap qismlari;
– butun qo‘shma gaplar;
– butun murakkab jumlalar;
– turli tuzilmalarning ilovali komponentlari zanjirlari.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Shunday qilib, ilovali elementlar ilova komponentli konstruksiya tarkibida bajarib keladigan vazifalari orqali o‘zlariga xos xususiyatlarni o‘zlarida takrorlab kelib, berilayotgan fikrni mazmunan boyishiga, shuningdek, yangi o‘ziga xos xususiyatlar birbirlarini kengaytirib, tabir joiz bo‘lsa, izohlab kelishiga xizmat qiladi hamda sintaktik aloqa usulining birligiga asoslangan bu konstruksiyalarning umumiyligi va natijada turli tuzilmalarning ilovali komponentlari yagona mantiqiy-semantik mazmunini ifodalashdan iborat bo‘lgan funksional umumiylik mavjud, struktura ichidagi ilovali hukmning funksiyasi namoyon bo‘ladi. Ilova komponentli konstruksiya tarkibida ilovali elementlarning soddalik va murakkablik, sinonimlik va takrorlanish, ketma-ket joylashish xususiyatlari badiiy matnning ma’nosini kitobxonga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi va asarning mazmundorligini oshiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asosiy ifoda birikib kelayotgan ilovali elementlarning soni ikkitadan beshtagacha yetishi mimkin. Bu bilan bunday ilovali elementlarning soni chegaralanib qolmaydi. Ilovali elementlarning soni beshtadan ham ko‘proq bo‘lishi mumkin. Gapning dinamik va statik aspektlarini ifodalashda ilova komponentli konstruksiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan dinamik va statik ilova konstruksiyalar mavjud bo‘lib, har ikkalasi ham sintaktik konstruksiyaning muhim struktur ko‘rinishini ifodalashda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ванников А.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. М., 1979.

(2). Виноградов В.В. Об «открытых» или «сдвинутых» конструкциях в синтаксисе «Пиковой Дамы». Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. М., 1980.

(3). Иофик Л.Л. Сложное предложение в новоанглийском языке. Л., 1968.

(4). Сербина Т.Г. Парцелляция как особое синтаксическое явление в языке современных газет. Автореферат канд. дис., Воронеж, 1988.

(5). Сержан Л.С. Смысловое членение парцеллированных сверхфразовых единств современного французского языка (интонационносинтаксическое исследование). Автореферат канд. дис., М., 1973.

(6). Шмелев Д.Н. О значении синтаксических единиц. Инвариантные синтаксические значения и структуры предложения. М., 1969.

(7). Lakoff G. Irregularity in Syntax. New York, 1970.

(8). Qodirova D.M., Xalikova D.Y., Daminova M.Z. Theoritical Basis of Teaching English Grammar. M., 2021.

(9). Даминова М.З. Анализ сложных структурных структур компонентов применения. М., 2024.

Tursunova Matluba Xolmatovna (Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)

SOTSIOLINGVISTIKANING TARIXI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Maqola sotsiolingvistikaning til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadigan ilmiy fan sifatida rivojlanishiga bag‘ishlangan. Unda Aflotun va Aristotelning falsafiy qarashlaridan tortib zamonaviy nazariyalargacha bo‘lgan sotsiolingvistika shakllanishining asosiy bosqichlari ko‘rib*